Xolnazarova Matlyuba Xolbutayevna (Guliston davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi professori)

IMOM BUXORIY HADISLARIDA TIJORAT VA MEHNAT HUQUQIDA INSON MANFAATLARINING HIMOYALANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada buyuk muhaddis Imom Buxoriyning "Al-Jami' as-Sahih" asarida keltirilgan tijorat va mehnat munosabatlariga oid hadislar huquqiy va ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda islom iqtisodiy huquqining asosiy tamoyillari – halollik, shaffoflik, shartnoma erkinligi va mehnatkashlar huquqlarining himoyasi kabi masalalar zamonaviy huquqiy normalar bilan qiyoslanadi.*

Kalit so'zlar: *Imom Buxoriy, hadis, tijorat huquqi, mehnat huquqi, inson manfaatlari, adolat, halol tadbirkorlik, ishchi huquqlari.*

Холназарова Матлюба Холбутаевна (профессор кафедры «Педагогика и психология» Гулистанского государственного университета)

ЗАЩИТА ИНТЕРЕСОВ ЧЕЛОВЕКА В ТОРГОВОМ И ТРУДОВОМ ПРАВЕ В ХАДИСАХ ИМАМА БУХАРИ

Аннотация. *В данной статье анализируются хадисы великого ученого-хадисоведа Имама Бухари из его труда «Аль-Джами ас-Сахих» о коммерческих и трудовых отношениях с правовой и социальной точек зрения. В исследовании сравниваются основные принципы исламского экономического права – честность, прозрачность, свобода договора и защита прав трудящихся – с современными правовыми нормами.*

Ключевые слова: *Имам Бухари, хадис, коммерческое право, трудовое право, интересы человека, справедливость, честное предпринимательство, права трудящихся.*

Kholnazarova Matlyuba Kholbutayevna (Professor of the "Pedagogy and Psychology" department of Gulistan State University

PROTECTION OF HUMAN INTERESTS IN COMMERCE AND LABOR LAW IN THE HADITHS OF IMAM BUKHARI

Annotation. *This article analyzes the hadiths of the great hadith scholar Imam Bukhari in his work "Al-Jami' as-Sahih" on commercial and labor relations from a legal and social perspective. The study compares the basic principles of Islamic economic law – honesty, transparency, freedom of contract, and protection of workers' rights – with modern legal norms.*

Key words: *Imam Bukhari, hadith, commercial law, labor law, human interests, justice, honest entrepreneurship, workers' rights.*

Kirish. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik va mehnat munosabatlarini tartibga solishda nafaqat qonuniy normalar, balki ma'naviy-axloqiy mezonlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buyuk vatandoshimiz Imom Buxoriyning hadislar to'plami insoniyat uchun nafaqat diniy manba, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning mukammal huquqiy kodeksi hamdir. Uning "Al-Jami' as-Sahih" asarida tijorat va mehnat sohasida inson manfaatlarini himoya qilishning fundamental asoslarini belgilab bergan.

Savdo va mehnat huquqlari inson munosabatlarida qadim zamonlardan beri mavjud bo'lib, inson huquqlarining muhim qismi hisoblanadi. Hech bir musulmon davlati yoki jamiyati bu huquqlar o'rnatilmasdan va tartibga solinmasdan yashamagan, chunki savdo-sotiq va mehnat jamiyatning iqtisodiy hayotini shakllantirgan va odamlarning ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishiga imkon bergan. Musulmon Sharqida bekorchilik qashshoqlikka, ma'naviy tanazzulga va iymonsizlikka olib kelishini yaxshi bilishga va bu hadis va sunnatlarda ham o'z ifodasini topgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Islom savdoni mehnatning bir shakli, boshqa odamlarning ehtiyojlarini qondirish usuli sifatida qaraydi. Shuning uchun savdodan keladigan daromad va undan olinadigan foydani qoralamaydi. Savdo insonning mehnat qilish huquqining ifodasi sifatida uni tanazzulga emas, balki ma'naviy kamolotga yetaklashi, e'tiqodini mustahkamlashi kerak. Shuning uchun Islom savdoni sudxo'rlikka aylantirishga qarshidir. Imom Buxoriy yozadi: "Muhammad (s.a.v.) payg'ambar davrida odamlar bozorga mol olib kelayotganlarni to'xtatib, ulardan yeguliklar sotib olishar (va o'shal yerning o'zida ularni qayta sotishar erdi). Shul boisdan Janob Rasulullo ul olib-sotarlarga odam yuborib, taomni sotib olingan yerning o'zida sotishni man qildilar va uni taom sotiladigan joyga olib borib sotishni amr qildilar" [4] va "sotib olingan oziq-ovqatlarni bir muncha vaqt o'zida ushlab turmay va sotib olingan yeridan bo'lak joyga olib bormay qayta sotishni man' qildilar" [4]. Xullas, islom tijorat qonuniga muvofiq "savdogar xaridorni

aldash uchun mol bahosini koʻtarishi, bir sotuvchi oʻz molini xaridorga koʻrsatib turgan vaqtda, ikkinchi sotuvchi oʻz molini tiqishtirib turishi, oluvchi molning bahosini kelishib turganda, ikkinchi kishi ortiqroq baho berishi, qoʻlida puli boʻla turib olgan qarzini uzmay yurishi, shaharga keltirilayotgan mollarni qimmat qilib sotish uchun yoʻlda xarid qilib olish, halolligi shubhali boʻlgan mollar bilan savdo qilish, bila turib oʻgʻrilik mollarni sotib olish, harom narsalar bilan savdo qilish va boshqa shunga oʻxshash ishlardan qochishi lozim" [11].

Tahlil va natijalar. Imom Buxoriyning "Al-Jomeʼ as-Sahih" asari nafaqat hadislar toʻplami, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, xususan, tijorat va mehnat huquqini tartibga soluvchi asosiy manbadir. Unda inson manfaatlari, mol-mulk daxlsizligi, halol mehnat va adolatli savdo tamoyillari yuqori oʻringa qoʻyilgan.

Tijorat huquqida inson manfaatlarining himoyasi. Imom Buxoriy hadislarida tijorat munosabatlari faqat foyda koʻrish emas, balki jamiyat aʼzolari oʻrtasida adolat va ishonchni qaror toptirish vositasi sifatida koʻriladi.

1. Shaffoflik va aybni yashirmaslik. Hadislarda sotuvchi molning aybini aytishi shartligi qatʼiy belgilangan. "Sotuvchi va oluvchi modomiki bir-birlaridan ajralmas ekanlar, savdoni buzishga ixtiyorlidirlar. Agar ular rost gapirib, molning aybini bayon qilsalar, savdolari barakali boʻladi..." degan hadis zamonaviy isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisidagi qonunlarning oʻzagi hisoblanadi.

2. Aldov va gʻarar (noaniqlik)ning taqiqlanishi. Imom Buxoriy keltirgan hadislarda "najsh" (molning narxini sunʼiy oshirish) va "ihtikar" (monopoliya maqsadida molni ushlab turish) qoralanadi. Bu normalar bozorda sogʻlom raqobatni taʼminlash va isteʼmolchilarning iqtisodiy manfaatlarini asrashga xizmat qiladi. Ribo (foiz)ning taqiqlanishi: Moliyaviy munosabatlarda odamlarni ekspluatatsiya qilish, zulm va oʻzaro manfaatga zid boʻlgan riboli bitimlar qatʼiy man etilgan, bu esa mol-mulk daxlsizligini taʼminlaydi.

3. Oʻzaro rozilik tamoyili. Savdo faqat ikki tomonning ixtiyoriy roziligi bilan amalga oshishi shartligi insonning shartnoma erkinligi huquqini kafolatlaydi. Shuningdek, mehnat munosabatlarida inson qadr-qimmatini ulugʻlash Imom Buxoriy hadislarining markaziy mavzusidir.

Bu yerda mehnat huquqining bir necha muhim jihatlari koʻzga tashlanadi:

1. Halol mehnat ulugʻlanishi. Hadislarda insonning oʻz qoʻli bilan mehnat qilib rizq topishi eng afzal kasb va ibodatning bir koʻrinishi sifatida taʼriflanadi.

2. Mehnat haqini oʻz vaqtida toʻlash. Islom huquqida ishchining haqini bermaslik yoki kechiktirish eng ogʻir gunohlardan biri sanaladi. Hadisi qudsiyda: "Qiyomat kuni Men uch toifa kishining dushmani boʻlaman... (ulardan biri) bir mardikorni yollab, undan toʻla foydalanib, haqini bermagan kishidir", deyiladi. Bu norma mehnat munosabatlarida ijtimoiy adolatni taʼminlashning eng kuchli mexanizmidir.

3. Ishchining imkoniyatini hisobga olish. Hadislarda xizmatchi va ishchilarga insoniy munosabatda boʻlish, ularga toqatidan ortiq yuk yuklamaslik buyuriladi. "Ular (ishchilar) sizning birodarlaringizdir... Ularga kuchlari yetmaydigan narsani yuklamanglar, agar yuklasangiz, oʻzingiz ham yordam beringlar", degan koʻrsatma zamonaviy mehnatni muhofaza qilish va munosib mehnat sharoitlarini yaratish tamoyillariga toʻla mos keladi.

3. Kasb tanlash erkinligi va mehnatning sharafliligi. Imom Buxoriy oʻz qoʻli bilan mehnat qilib kun koʻrishni eng oliy fazilat sifatida taʼriflaydi. Bu esa jamiyatda mehnatga boʻlgan ijobiy munosabatni va shaxsning iqtisodiy mustaqilligini shakllantiradi.

Imom Buxoriy hadislarining oʻziga xosligi shundaki, unda huquqiy norma axloqiy qadriyat bilan birlashib ketgan. Masalan, qarzni qaytarishda boy kishining qarzni choʻzishi "zulm" deb baholanadi. Bu nafaqat huquqiy majburiyat, balki shaxsning maʼnaviy qiyofasini belgilovchi mezondir.

Tijoratda oʻlchov va tarozidan urib qolmaslik, yetim va muhtojlarning moliga daxl qilmaslik haqidagi hadislar jamiyatning eng zaif qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi ijtimoiy qalqon vazifasini oʻtaydi.

Tijoratda halol boʻlishning ahamiyati ta'kidlanadi. Halol tijorat, faqat moliyaviy manfaat emas, balki jamiyatning umumiy farovonligiga ham xizmat qiladi. Halol raqobat muhimdir. Boshqalar manfaatlarini hurmat qilish va adolatli savdo qilish zarur.

Inson manfaatlarini himoya qilish tamoyillari. Ijtimoiy himoya. Mehnat qobiliyatini yoʻqotganlar, kambagʻallar va faqirlarga nisbatan gʻamxoʻrlik qilish, sadaqa va zakot berish orqali ijtimoiy adolatni taʼminlashga urgʻu beriladi. Islom shariati ahkomlari ichida mol-mulkni muhofaza qilish (haqiqiy va noqonu-

[1] Тижорат ва иймон. Т., "Мовароуннахр", 1993, 20–21-бетлар.

niy yo‘llar bilan boylik orttirishdan qaytarish) muhim o‘rin tutadi. Savdo va ishlab chiqarishda axloqiy mezonlarga rioya qilish, insonlarning huquqlarini poymol qilmaslik shart qilib qo‘yilgan.

Imom Buxoriy hadislaridagi tijorat va mehnat huquqiga oid ko‘rsatmalar nafaqat huquqiy, balki chuqur psixologik asoslarga ham ega. Bu qoidalar insonning ruhiy xotirjamligi, motivatsiyasi va jamiyatdagi ijtimoiy adaptatsiyasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mavzuning asosiy psixologik jihatlariga to‘xtalsak, ular quyidagilardan iborat:

1. Halol mehnat va “O‘zlikni anglash”. Hadislarda o‘z qo‘li bilan rizq topishning ulug‘lanishi insonning o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmatini oshiradi.

Psixologik ta’siri. Kishi o‘z mehnati bilan natijaga erishganda, unda “men buni uddaladim” degan ichki ishonch shakllanadi. Boqimandalikdan qutilish insonni depressiya va kamsitilish hissidan himoya qiladi.

2. Savdoda “Xiyor” (Tanlash huquqi) va Ruhiy erkinlik. Savdolashayotgan tomonlarga bir-biridan ajralmaguncha fikridan qaytish huquqining berilishi (Xiyor-ul-majlis) – bu qaror qabul qilish psixologiyasi bilan bog‘liq.

Psixologik ta’siri. Inson shoshilinch qaror qabul qilganda keyinchalik “sotib oluvchi afsuslanishi” kabi stress holatiga tushadi. Hadisdagi bu imkoniyat xaridorni ruhan tinchlantiradi va savdodagi agressiyani kamaytiradi.

3. Aldovning taqiqlanishi va “Ishonch” faktori. Tijoratda molning aybini yashirmaslik talabi jamiyatda ijtimoiy ishonch muhitini yaratadi.

Psixologik ta’siri. Doimiy aldanish qo‘rquvi bilan yashash insonda surunkali xavotir keltirib chiqaradi. Shaffof savdo esa neyropsixologik darajada “xavfsizlik hissi”ni uyg‘otadi, bu esa iqtisodiy hamkorlikni osonlashtiradi.

4. Ishchi va ish beruvchi o‘rtasidagi “Emotsional intellekt”. “Ishchiga kuchi yetmaydigan vazifani yuklamaslik” va “haqini vaqtida berish” qoidalari zamonaviy menejment psixologiyasining asosidir.

Psixologik ta’siri: Motivatsiya. Haqini vaqtida olgan ishchida adolat hissi shakllanadi va ish unumdorligi oshadi. Ruhiy toliqish oldini olish, imkoniyatdan ortiq yuklamaslik ishchining ruhiy sinishi va kasbiy sovushining oldini oladi.

5. Saxovat va qarz berishdagi “Empatiya”. Nochorga muhlat berish yoki qarzdan kechish haqidagi hadislar altruizm (boshqalarga beg‘araz yordam berish) psixologiyasini shakllantiradi.

Psixologik ta’siri. Yordam beruvchida “baxt gormonlari” (endorfin, oksitotsin) ajraladi, qarz oluvchida esa “umidsizlik” va “tuhmat” hissi o‘rnini minnatdorchilik egallaydi. Bu ijtimoiy nizolarning oldini oluvchi psixologik “buffer” vazifasini o‘taydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Imom Buxoriy keltirgan ushbu tamoyillar iqtisodiy munosabatlarni shunchaki raqamlar emas, balki insoniy hissiyotlar va ruhiy muvozanat ustiga qurishni o‘rgatadi.

Imom Buxoriy hadislarida aks etgan tijorat va mehnat munosabatlari tizimi inson manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga qaratilgan. Ushbu hadislar:

•Iste’molchini aldov va asossiz narx oshishidan.

•Ishchini ekspluatatsiya (zulm) va haqining poymol bo‘lishidan.

•Tadbirkorni esa ishonchsizlik va barakasizlikdan himoya qiladi.

Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy va mehnat qonunchiligini takomillashtirishda, shuningdek, yosh tadbirkorlarda "halol biznes" madaniyatini shakllantirishda Imom Buxoriy merosi beqiyos metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvadagi «2022–2026-yillarga mo‘ljallanan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-farmoni.

(2). Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T., “O‘zbekiston”, 2017, 28–29-betlar.

(3). Oltin Silsila. 1-jild. Sahihul Buxoriy. Toshkent, “Hilol-nashr”, 2019, 3 – 4-betlar.

(4). Sahiqi Buxoriy (Al-jomi’-as sahih). T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi’ nashriyoti, 2009, 24-bet.

(5). Imom al-Buxoriy. Sahih-ul Buxoriy-1. “Hilol-nashr”, 2012, 179-bet.

(7). Ma’rifat – tinchlik asosi. T., Toshkent Islom universiteti nashriyoti matbaa birlashmasi, 2009, 56-bet.

(8). Ming bir hadis. T., “Movarounnahr” nashriyoti, 1998, 69-bet.

(9). Imom al-Buxoriy. Al-adab al-Mufrad. T., “O‘zbekitson”, 1990.

(10). Oltin silsila. 1-jild. Sahih-ul Buxoriy. “Hilol-nashr”, 2019, 179-bet.

(11). Тижорат ва иймон. Т., “Мовароуннахр”, 1993, 20–21-бет.